

Jurnal 2023-yil 28-sentyabrda Guliston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan 2019-yil 30-yanvarda chop etilgan OAK rayosati qarorlari bilan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra 07.00.00 - "Tarix", 09.00.00 - "Falsafa", 10.00.00 - "Filologiya" ixtisosligi bo'yicha; OAK Rayosatining 2023-yil 31-oktyabrdagi 345-son qarori bilan 12.00.00 - "Yuridik fanlar", 13.00.00 - "Pedagogika", 19.00.00 - "Psixologiya" ixtisosliklari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**

Sirojiddin SAYYID  
Muhammad ALI  
Kengesboy KARIMOV  
Iqbol MIRZO  
Qurbon SHONIYOZOV  
O'rozboy ABDURAHMONOV  
Murotboy JUMANOV

**Adabiy maslahatchi:**

Guliston MATYOQUBOVA

**Rassom:**

Alibek ABDURAHMONOV

**Sahifalovchi-bezovchi:**

G'iyosiddin O'NAROV

**Texnik muharrir:**

Ulug'bek SAIDOV

**Manzilimiz:** Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt:

<https://tamaddunnuri.uz>

e-mail: [tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com).

Telegram kanali:

<https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55,

(+99897) 355 75 40.

**PEDAGOGIKA**

**Raxmonov Sunnatillo Mavlonovich.** Axloqiy kompetensiyalar va uning pedagogik tahlili.....21

**Xafiza Nishanova Vafokulovna.** Turizm sohasiga oid terminlarni shakllanish tarixi va rivojlantirish tendensiyalari.....23

**Sodiqova Yulduz Furqatovna.** Oliy ta'limda baholash mezonlari va uning xususiyatlari.....27

**Rafieva Bunafsha Rustamovna.** Individualization as an integration of digital educational technologies in learning process.....43

**Temirova Muattar Amirkul kizi.** Analyzing traditional children's poems as an object of scientific scrutiny.....47

**Qurbaniyazova Zulqumar Sali qizi.** Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda xalq ertaklarini o'qitishning samarali usullari.....51

**Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna.** Sport pedagogikasining tamoyillari va xususiyatlari.....170

**Samandarov Asad Xushvaqivich.** Olimpiya harakati: tarix, zamonaviylik, istiqbollar.....173

**Azamova Sitara Ayonovna.** Maktab o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy maqsadlari va asosiy ko'rsatkichlari.....198

**Musayeva Gulnora Abdulxamidovna.** Ingliz tilini o'qitishda viki texnologiyasining o'rni.....201

**Rajabova Nilufar Egamberganovna.** Yusuf Hamadoniy siymosining bugungi ma'rifiy ahamiyati.....218

**Abdullayev Zakir Nurmatovich, Nurmatov Adhamjon Zakir o'g'li.** Yosh kurashchilarning boshlang'ich tayyorgarlik davridagi texnik-taktik harakatlari.....254

**Sariyeva E'tibor M.** Madaniy turizmning talabalar ma'naviy-ma'rifiy fazilatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati.....266

**Мамадиярова Дилфуза Умирзаковна, Азгарова Гулсум Алишеровна.** Ўз-ўзини ривожлантиришнинг тиббиёт олийгоҳлари талабаларида касбий кўникмалар шаклланишидаги ўрни.....289

**Kenjayev San'at Rahimboyevich, Salayeva Shoxida Xudaybarganovna.** 12-14-yoshli qizlarni stol tennisini o'ynash texnikasiga o'rgatish.....297

**Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich.** Jismoniy madaniyat va sport estetikasining aksiologik masalalari.....300

**Umirova Navruza Mamasoliyevna.** Oliy ta'limda xorijiy o'quv dasturlar orqali talabalar mustaqil dunyoqarashini kengaytirishning nazariy asoslari.....303

**FILOLOGIYA**

**Khidirova Makhfuza A.** Investigating linguistic landscape of compound animal names in the english language.....55

**Xotamova Parvina Ilhomovna.** Qiyoslanayotgan tillarda posesivlik maydonining ifodadanish xususiyatlari.....59

**Aziza Axtamovna Marupova.** Features of creating the image of scarlett o'hara in the novel gone with the wind by Margaret Mitchell.....63

**Саримсоков Сирожиддин Ш.** Ўзбек тилида публицистик матнларни асосини белгиловчи бирликлар таҳлили...67

**Мастура Мизробовна Облокулова.** Неличные формы глагола в аспекте современных синтаксических теорий..71

**Sa'dulla MATYAKUPOV.** She'riyatda ritorik munosabat, murojaat va dialogizm.....75

**Hamroyeva Farida Fakhriiddinovna.** O'tkir Hoshimov asarlaridagi personaj va mavzuga oid transpozitsiyaning qo'llanilishi

**Ibragimova So'g'diyona Ikrom qizi.** Evfemizmlarning gender xususiyatlari.....83

**Sobirova Firuza Urunchayevna.** Power and society in aldous huxley's novel «Brave new world».....87

**Diyorova Diyora O'roqaliyevna.** Ingliz tilida "mehr" konsepti qatnashgan idiomlarning lingvomadaniy tahlili.....91

**Chorshanbiyeva Nozima Boymurod qizi, Qodirova Muqaddas Tog'ayevna.** Diplomatik sohaga oid terminlarning bir tilli lug'atlari (ingliz va o'zbek tillari asosida).....98

**Aslonova Husnida Botirjon qizi.** Zamonaviy koreys tilida ijobiy emotsiyaning ifodalashning semantik gradatsiyasi.....108

**Umida XALMUXAMEDOVA.** Og'zaki va yozma nutq o'stirishda matn tuzish mahorati masalasi.....113

**Topildiyeva Feruza Raximjonovna, Abdunazarova Maftuna Faxriddinovna.** Mutaxassis nutqning lisoniy materialini tanlash va o'rgatish usullari.....117

**Sayyora SAMANDAROVA.** Jadidchilik harakati namoyandalari asarlarining yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga ta'siri.....167

**Саматов Фарход.** "Телевидение"га оид лексик бирликлар ясалишининг айрим хусусиятлари (инглиз тилида)176

**Eshqurbonova Aziza Bozor qizi.** Sukut- dialoglarda kommunikativ strategiya sifatida.....190

**Ғафқоров Нодир Насриевич.** Спорт терминларининг структур ва дискурсив таҳлили .....194

**Tojiyeva Anora Vaxtiyorovna.** Chet tillari bo'yicha milliy o'quv dasturidagi lingvistik kompetensiyalar.....205

**Aytbayev Dilshodxuja Temirbayevich.** Ergash gapli qo'shma gaplarda asimmetrik dualizm.....212

**Қдырбаева Улзада Кайрбаевна.** Геминацияның лингвопоэтикалық өзгешеліктері.....225

**Isoqova Feruza Shamsiddin qizi.** O'zbek siyosiy diskursida lotin o'zlashma terminlarining ishlatilishi xususida.....240

**Бегматова Соҳиба Мустафоевна.** Кадзуо Исигуронинг "Клара ва қуёш" дистопик романида ёлғизлик мавзусининг бадиий ифодаланиши.....249

**Boltaboyev Omonboy Y.** Muammo nazariy talqinida tanqidchi mahorati o'ziga xosligi (B.Nazarov ijodi timsolida).....257

**Maxmudov Raufjon Baxodirovich, Eshmurodov Madamin Jumabayevich.** Xorazm turkiy tarixnavisligi manbalarida "davlat" tushunchasini ifodalovchi istilohlar.....260

**Ermatova Rano Omonovna.** Tibbiy atamalarni shakllantirishda prefiksatsiya usuli.....277

**Ismailova Sayyora Tolkinovna.** Meditsinaga oid matn tushunchasi.....280

**Nazirova Oygul Muxitdinovna.** Inglizcha-o'zbekcha dizayn (kostyum) terminologiyasida leksik-semantik jarayonlar..286

**Amonkeldi AXMATOV.** Buxoro adabiy muhiti va Mirza Sahbo.....310

## BUXORO ADABIY MUHITI VA MIRZA SAHBO

Amonkeldi AXMATOV, Buxoro davlat universiteti t.f.f.d  
(PhD), dotsent

## BUKHARA LITERARY ENVIRONMENT AND MIRZA SAHBO

Amonkeldi Akhmatov, Bukhara State University, associate  
professor (PhD)

## БУХАРСКАЯ ЛИТЕРАТУРНАЯ СРЕДА И МИРЗА САХБО

Амонкелди Ахматов, Бухарский государственный  
университет, (PhD), доцент



ORCID: 0000-0003-  
3556-6779

e-mail:

[amon.axmatov@mail.ru](mailto:amon.axmatov@mail.ru)

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Buxoro adabiy muhitining XX asr boshlaridagi holati, shuningdek, Mirzo Hayit Sahboning hayoti va ijodi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro, adabiy muhit, maktablar, mirza Sahbo, Ayniy, Buxoro amirligi.

**ABSTRACT:** This article studies the state of the literary environment of Bukhara at the beginning of the 20th century, as well as the life and work of Mirza Hayit Sahbo.

**Key words:** Bukhara, literary environment, schools, Mirza Sahbo, Ainiy, Bukhara Emirate.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье изучается состояние литературной среды Бухары в начале XX века, а также жизнь и творчество Мирзы Хайита Сахбо.

**Ключевые слова:** Бухара, литературная среда, школы, Мирза Сахбо, Айний, Бухарский эмират.

### KIRISH (INTRODUCTION)

Ahmad Donish, Shamsiddin Shohinning ma'rifatparvarlik qarashlarini davom ettirgan Sadridin Ayniy, Abdulvohid Burxonov, Abdurauf Fitrat singari Buxoro adabiy muhiti vakillari maydonga chiqdilar. Ozodlik, tenglik, hurfikrlilik, demokratiya uchun kurashlar Buxoro adabiy muhiti bilan bevosita bog'liq edi. Davr she'riyatida hayotiy reallik ijtimoiy hayotning muhim masalalariga aylandi. Ular ijodida, xalq dardini ifodalash, ijtimoiy norozilik, davrni oshkora tanqid qilish ruhi ustunlik qildi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (MATERIALS AND METHODS)

Adabiy muhit tarixini o'rganishda undagi har bir ijodkorning ma'naviy merosini tushunish uchun u yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy muhiti, shu bilan birga, ijodkorning shaxsiy oilaviy hayotini o'rganish eng to'g'ri ish bo'lardi va shundagina ijodkorning maqsadi g'oyasini anglash imkoni yanada ortadi. Ahmad Donish kabi yetakchilar boshlab bergan uslubni ko'plab izdoshlari XX asrda ham davom ettirdilar. Ana shunday madaniy muhitda XX asr boshlarida ilm-fan va adabiyot rivojida muhim rol o'ynagan adiblardan biri Mirza Sahbo Vobkandiy edi. XIX asr oxiri - XX asr birinchi choragida Buxoroda kechgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy-madaniy jarayonlarni haqiqiy talqin etishda



Alisonayn adib va davlat arbobi Mirza Hayit Sahbo Vobkandiy ilmiy–ma’naviy merosi muhim ahamiyatga ega.

Mirza Sahbo Vobkandiy (1836/1845-1918) Vobkent tumaniga qarashli Arabon qishlog‘ida tug‘ilgan. Ijodkorlik faoliyati Sharifjon Maxdumning “Tazkori ash‘or” tazkirasida (40 misra she‘r), Mirza Somiy “Mirot ul-xayol” tazkirasida (22 misralik masnaviy), Sadriddin Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik”, “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar”, “Esdaliklar”ning uchinchi qismida (Tanlangan asarlar 6-tom) yozib qoldirilgan. Mirza Abdulazim Somiy “Mirot ul-xayol” tazkirasida fikran o‘ziga yaqin bo‘lgan Mirza Sahboni “fozil, nozikta‘b ijodkor”, deya ta‘riflaydi [4,256]. Madrasada o‘qish uchun Buxoroga kelgan, o‘qishni tugatmay Karmana hokimi, valiahd shahzoda Abdulahad xizmatiga kiradi. Abdulahadxon Amir unvoni bilan Buxoro hukmdori bo‘lgach, Mirza Sahbo saroyga bog‘lanadi. Turli lavozimlarda ishlaydi. U amir atrofidagi mulozimlarga va ba‘zan amirga taalluqli illatlarni ham oshkora aytadi. Mirza Sahbo hamisha saroy ahlining nuqsonlarini fosh etar, hatto ba‘zan amir huzurida ham haqiqatni gapirishdan toymas edi. Mirza Sahboning bu xususiyatlarini Sharifjon maxdum tazkirasida quyidagi baytlarda bayon etgan:

*...Fazilatli, ham erdi g‘ayratli er,  
So‘z-u qilmishida edi misli sher.  
Buningdek bilakli bir pahlavon,  
Emas borligi yer yuzida ayon.  
Ochiq aytar erdi haqiqat so‘zin,  
Ulug‘, kattaning qilmas erdi yuzin.  
Haqiqatni hatto shah oldida ham.  
Mudom aytar erdi, yemay aslo g‘am.*

She‘rda ta‘riflangandek, haqiqatni aytadigan shohga ma‘qul tushmas, boisi Buxoro amirlari ham boshqa hukmdorlar singari soxta maqtovlarga muhtalo edilar. Natijada “amir undan ranjib shahar arig‘iga mirob qilib tayinladi”, – deb yozadi Sadriddin Ayniy “Esdaliklar”ining oltinchi jildida [3,6.25].

“Halolliги bilan tanilgan davlat xizmatchisi” haqo‘yligi uni saroydan uzoqlashtiradi. Amir undan ranjib, shahar arig‘iga mirob qilib tayinladi. Ikki yillik miroblikdan so‘ng xalq orasida obro‘-e‘tibor qozonishi amirga yoqmaydi. Uni mirshablik lavozimiga tayinlaydi.


So‘ngra arzimas maosh tayinlab, uyda o‘tirib majbur qiladi. Bu Mirza Sahbo ijodini biroz jonlantiradi, noroziligini kuchaytiradi. Said Olimxon taxtga kelgach ham vaziyat o‘zgarmaydi.

Buxoroga Rossiya, Ozarbayjon, Tatariston va boshqa o‘lkadan kelayotgan ma‘rifiy-inqilobiy xarakterdagi kitob va gazetalarni o‘qishi adib hayotida yangi sahifa ochadi. Mutaassiblar bo‘htoni bilan tuzilgan shubhali kishilar to‘g‘risidagi ro‘yxatga Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Burhonov Munzim bilan Mirza Sahbo kabi jami qirqqa yaqin kishi kiritiladi. Turli tazyiqlarga qaramasdan, Buxoro adabiy muhiti vakillari maktabning foydalari haqida so‘zlashdan qaytmadilar. Jumladan, Buxoro qozisi Burhoniddin maktablarni yopish masalasida qushbegi Ostanaqul huzuriga kelganda, Buxoro mirshabi shoir Mirza Sahboning javobi, ayniqsa, diqqatga sazovordir: “Ushbu maktab musulmon bolalari uchun lozim va nofe‘dir. Muni yopmoq, islomga xiyonat va musulmon bolalari haqida jinoyatdir. Men umid qilamankim, bu ishga jasorat qilmasangiz” [1,86]. Afsuski, uzoq va bahsli tortishuvlardan so‘ng qushbegi va qozikalon maktabni yopishga fatvo berdi.

Amir Abdulahadxondan so‘ng taxtga kelgan Amir Sayyid Olimxonning ham xarakterida haqiqatni aytuvchilarga munosabat salbiy edi. 1918-yil M.Kolesov voqealaridan keyin sakson yoshdan oshgan mirza Sahbo Qo‘bodiyyonga surgun qilinib, vahshiyona o‘ldirtiladi.

Shoirning saroydan quviliши va qatl etilishi haqida turli ma‘lumotlar uchraydi. Mirza Sahbo jadidlar bilan, ayniqsa, Abdulvohid Munzim bilan do‘stona munosabatda bo‘lgan. Fayzulla Xo‘jaev “Buxoro inqilobi va milliy chegaralanish” kitobida: “Jadidlarga xayrixoh bo‘lgani uchun amir o‘ldirtirdi”, -deydi [2,31]. Jaholat bilan adolat to‘qnashuvi avjiga chiqqan bir davrda saroy odami bo‘la turib, taraqqiyparvarlarga xayrixoh bo‘lishning o‘zi katta ahamiyatga ega. Adabiy muhitning yana bir vakili qismati fojeali yakun topdi. Biroq, oqizilgan qonlar xalqni uyg‘otdi, ma‘rifatga chorladi, haqiqatni tikladi.

Tikso‘z Mirza Sahbo zamon sadolaridan ilhom olgan an‘anaviy she‘riyatning ham o‘zbek, ham tojik tilidagi betakror namunalarini yaratdi. “Chor oxrankasi” va Rossiya hukumatining rasmiy idoralari imkon qadar mustamlaka hamda Buxoro amirligi singari yarim qaramlikda yashayotgan



Ujudlarga keng xalq ommasi dunyoqarashini oshiradigan, ularni jahonda kechayotgan yangiliklardan voqif qilib turadigan matbuotni tarqatish va chop etishga ruxsat bermagan. Bunday adolatsizlik Sahboning qalamini yanada charxlab, yozishga chorlagan.

### **MUHOKAMA (DISCUSSION)**

Davlat, jamoat arbobi bo'lishi bilan birga, zo'r shoir sifatida ham o'zidan yaxshigina meros qoldirgan. Mirza Sahboning turli bayoz va tazkiralardan o'rin olgan yigirmaga yaqin she'rlari to'plangan. Ikkita she'ri XX asrning 30-yillarida grampalstinkaga yozib olingan. Ayniy devoni borligini yozadi [4,254]. Mirza Sahbo o'qish davridanoq she'riyat va oliyjanoblikda adabiy muhitda o'z o'rniga ega bo'lgan. Sadr Ziyonononining mehmonlaridan bo'lgan shoir devon tartib qilgan, shoir ijodida yana zullisonaynlik an'analari davom ettirilgan. She'rlarida muhabbat, mazlumlar hayotidan shikoyat, hukmron sinf adolatsizliklari tanqidi, yaxshi insonlar fazilatini madh etish kabi mazmundan iborat.

Mirsiddiq Hashmat shoirlarning hayotini tasvirlab, ularning ijodidan namunalar keltirar ekan, shoirlarning yutuqlari va kamchiliklarini qayd etadi, shuningdek, ularning ayrim xato va kamchiliklarini tanqid qiladi. Muallif Mirza Sahbo bilan bir qatorda Shakuriy Samarqandiy, Anbar, Xazin, Kasrat, Afzal, Gulxaniy va boshqa shoirlar haqidagi ma'lumotlarni keltiradi.

### **NATIJALAR (RESULTS)**

Mirza Sahbo devonining mazmuni juda rang-barang bo'lib, shoirning g'azallarida, muxammaslarida tarixiy an'analarga, mumtoz she'riyat uslubiyatiga rioya qilish holatlari kuzatiladi. Mirza Sahbo she'rlarining tili sodda va ravon, xalqona ruhda yozilganligi bilan she'riyat ixlosmandlari orasida ko'plab muxlislarga ega. Mirza Sahboning she'riyatida Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Hofiz Xorazmiy, Hasan Dehlaviy, Mavlono Osafiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Mushfiqiy, Junaydullo Islomshayx o'g'li Hoziq, Mirza Abdulqodir Bedil ijodining ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi.

### **XULOSA (CONCLUSION)**

Xulosa qilib aytganda, XX asr dastlabki yillarida yuz bergan tarixiy jarayonlarning borishida adabiy muhit vakillarining ham samarali faoliyatini kuzatish mumkin. Xalq bilan hamnafas yashagan ijodkorlar adabiy merosini o'rganish alohida dolzarblik kasb etadi. Shuningdek, tarix hukmron doiraning adabiy muhitga bo'lgan qarashlarining salbiy va ijobiy tomonlari o'rganilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu borada kamina Amonkeldi Axmatov tarixchi sifatida ayrim tadqiqotlar qilgan bo'lsam-da, bu oz. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham mavzuni o'rganish jarayonlari davom etmoqda. Mirza Sahbo devon tuzgan ijodkorlardan bo'lib, bu haqida Sadridin Ayniy alohida to'xtalib, adibni "inqilob va haqiqat yo'lida qurbon bo'lgan navbatdagi vakil", deb yozganiga ham ko'p yillar bo'libdiki, hamon ijodkorning hayoti va faoliyati haqida tayinli ishlar qilinmagan. O'zbek adabiyotshunosligining navbatdagi vazifalaridan biri tarixda o'chmas iz qoldirgan adib Mirza Hayit Sahboning adabiy-badiiy faoliyati, hayoti va ijodini o'rganib, nomini qayta tiklash dolzarblik kasb qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):**

1. Axmatov.A. Таълим тизимида ислохотлар учун кураш (Бухоро адабий муҳити вакиллари иштирокида). Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. №1 (70). 2021 й. –Б. 84-87 (<http://mamun.uz/uz/page/56>)
2. Axmatov A. Buxoro adabiy muhiti tarixi (XX asr) Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2022. –Б.32.
3. Айний С. Эсдаликлар. Асарлар. 8 жилдлик. 5-7-жилдлар. – Тошкент: ЎзССР давлат бадий адабиёт, 1963-1967.
4. Воҳидов Р, Маҳмудов М. Устод Садриддин Айний сабоқлари. –Тошкент: Фан, 2004. -320 б.
5. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Бухоро бўлими тарихи. Research on social and Humanitarian sciences Volume: 01. Issue:01/Jan-2023 Impact factor: 7.2 (2022) ISSN-L: 3595-3566 [www.scirp.org](http://www.scirp.org)